

Talabalar haftaligi doirasidagi tadbirlar

Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti "Yoshlar ittifoqi kengashi " tomonidan talabalar haftaligi uchun turli xil tadbirlar uyishtirib berildi.

Haftaligning birinchi kuni(dushanba) da fakultet talabalari uchun Puzzle time tashkil etildi . Talabalar katta qiziqish bilan 1000 donalik puzzleni yasab bitirishdi.

Ikkinchi kuni esa fakultet talabalari uchun "Qinoteatr" (4- qavatdagi zalda) tashkillashtirildi. Barcha talabalar kinoni maroq bilan tomosha qilishdi va o'zlari uchun kerakli xolasalar chiqarishdi.

Ushbu tadbirlarni tashkillashtiruvchi Iqtisodiyot fakulteti dekani Rashid Hakimov, Yoshlar ittifoqi sardori Fayzullayev Behzod va kengash a'zolari Omonov A.Keldiyorov B. Omonov N. Kuryazov I. Radjabov A. Latipov J. Mansurov I. lar bo'lishdi.

TADBIRLARDAN LAVHALAR





Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti Yoshlar ittifoqi kengashi tomonidan talabalar haftaligining so'ngi kuni uchun alohida "Kvest " o'yini o'tkazildi.

Ushbu o'yinda zakovatdan saralanib olingan 3 ta jamoa qatnashdi. Ushbu jamolar: Farzin(102),205(205),306(306) bo'lishdi. O'yin juda shiddatli o'tdi. Yomg'ir yog'ib turishiga qaramay o'yinchilar bor kuch g'ayratini ishga solib o'yinda qizg'inlik bilan ishtirok etishdi. O'yinchilarni chalg'itish uchun Fakultet yetakchisi turli xil qiyofalarda har xil joylarda paydo bo'lib ularni chalkashtirmoqchi bo'ldi. O'yinchilar shunchalik qiziqib ketganidan uning takliflarini rad etishdi. Marraga birinchi bo'lib "306" guruh yetib keldi. Ammo bu o'yinda hech kim mag'lub bo'lmadi. Hamma ishtirokchilar mukofot olishadi.

Tashkilotchilar- fakultet dekani Rashid Hakimov, Yoshlar ittifoqi yetakchisi B.Fayzullayev va kengash a'zolari Omonov A. Keldiyorov B. Kadirboyeva F. Qodirova Z. Latipov J Radjabov A. Mirvohidjon va Akramjonlar bo'lishdi.

Eng muhimi bayram kayfiyati hammani qamrab oldi.









